

Globallashuv sharoitida
ona tili va adabiyotning
ijtimoiy ahamiyati va uni saqlash
tamoyillari

XALQARO ILMIIY-AMALIY
KONFERENSIYA TO'PLAMI



Qo'qon-2025





**“GLOBALLASHUV SHAROITIDA
ONA TILI VA ADABIYOTNING
IJTIMOIY AHAMIYATI VA UNI
SAQLASH TAMOYILLARI”**

**MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA**



UO‘K: 316.422.42
KBK 60.56(5ŷ)

Qo‘qon universiteti direktori
G‘.E.Zohidov tahriri ostida

TAHRIR KENGASHI

- 1. Zeboxon Qobilova** – Qo‘qon universiteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, filologiya fanlari doktori, professor
- 2. Shuhrat To‘xtasimov** – O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi rektori, professor.
- 3. Akhlaq Ahmad Ahan** – Jawaharlal Nehru universiteti Fors va Markaziy Osiyo tadqiqotlari markazi rahbari, professor.
- 4. Maqsud Asadov** – O‘zRFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti direktor o‘rinbosari, filologiya fanlari doktori, professor.
- 5. Bahodir Karim** – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori, filologiya fanlari doktori.
- 6. Minhojiddin Mirzo** – O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisining birinchi o‘rinbosari, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori.
- 7. G‘ayrat Majidov** – O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi o‘rinbosari.
- 8. Botirjon Ergashev** – Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti direktori.
- 9. Hulkar Hamroyeva** – O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi professori, filologiya fanlari doktori.
- 10. Shahlo Naraliyeva** – Qozog‘iston Respublikasi Jumabek Tashenev universiteti Xalqaro hamkorlik departamenti direktori, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).
- 11. Rustam Sharipov** – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Jadidshunoslik ilmiy-tadqiqot markazi direktori, filologiya fanlari doktori.
- 12. Salimjon G‘aniyev** – Qozog‘iston Respublikasi Amir Temur jamg‘armasi xalqaro bo‘lim boshlig‘ining o‘rinbosari, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori.

To‘plamni nashrga tayyorlaganlar: Sh.Jumanova, M.Imomaliyeva, N.Tursunova, Sh.Payg‘amova, S.Ergasheva, N.Javharova, X.Raimova.



—•••••—

yer–osmon, suv–olov qorishib ketar.

Bir hadis tusharak yodimga nogoh

tasavvur oynasi yorishib ketar:... A’zam O’ktam o’zidan go’zal she’rlar qoldirdi. “Men, ashraful mahluqot bo’libnima qilyapman? O’z rabbimni taniymanmi? Haqqini ado etyapmanmi? Butun mavjudod o’z zabonida Yaratganga shukrona aytsa-yu, men nega behuda kezinyapman?”, - degan haqli savollar qurshovida qoladi. Bu savolarga javob topish uchun bel bog’laydi. Insoniylik sharafiga loyiq bo’lmoq istagida hayotini o’zgartiradi. Ha, A’zam O’ktam she’riyati bir nur. Nurki, yorug’ manzillarga eltguvchi!

*O’t o’lan aytar salovot,
jo’r bo’l, ey A’zam O’ktam.
Iymoning bo’lsin salomat,
nur bo’l, ey A’zam O’ktam![4,337]*

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A’zam O’ktam. Sahar vaqti yurak yig’lar. Toshkent:2014. 20-bet
2. Karimov B. «Sharq yulduzi» jurnalining 2010-yil, 5-soni
3. Mullaxo’jayeva K.Ma’rifatga oshno ko’ngil. “A’zam O’ktam badiiy mahorati” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjumani materiallari / Andijon, 2020. – 178-184b.
4. Qobilova Z. Nur bo’l, ey A’zam O’ktam. “A’zam O’ktam badiiy mahorati” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjumani materiallari / Andijon, 2020. – 334-337b.
5. Jo’raqulov U. A’zam O’ktam she’riyatining uch asosi. “A’zam O’ktam badiiy mahorati” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjumani materiallari / Andijon, 2020. – 255-261b.
6. Isajon Sulton. Diyonatli shoir, o’ktam adib. “A’zam O’ktam badiiy mahorati” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjumani materiallari / Andijon, 2020. – 186-188 b.
7. Quronov D. A’zam O’ktam she’riyati haqida ayrim qaydlar. A’zam O’ktam badiiy mahorati” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjumani materiallari / Andijon, 2020. – 227-228-b.

MAVSUMIY-MAROSIM FOLKLORIDA JISMONIY TARBIYA G’OYALARI VA ULARNING PEDAGOGIK TALQINI

Ergashev Shahboz Dilmurodjon o’g’li,
Qo’qon universiteti mustaqil izlanuvchisi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada o’zbek mavsumiy-marosim folklorida ifodalangan jismoniy tarbiya g’oyalari tarixiy-pedagogik tahlil qilinadi. Navro’z,





Lola sayli, Shoxmoylar, Loy tutish, Sust xotin, Boychechak, Halinchak, Oblo baraka va Gap-gashtak kabi marosimlar harakat komponenti, verbal qatlam va tarbiyaviy funktsiya nuqtai nazaridan o‘rganiladi. Tadqiqot qishki, bahorgi, yozgi va kuzgi marosimlar turkumidagi barcha harakat an‘analarini yagona mezonlar tizimida tahlil qiladi. Natijada mavsumiy-marosim folklorida beshta asosiy pedagogik g‘oya ajratib ko‘rsatildi: 1) jismoniy va aqliy kamolot birligi; 2) harakat faolligining bayram shakli; 3) mehnat va jismoniy chiniqish birligi; 4) sog‘liqni jismoniy va ruhiy birlikda tushunish; 5) jismoniy tarbiyaning so‘z vositasida qadriyatlashtirilishi. Maqolada ushbu g‘oyalarni zamonaviy ta‘lim amaliyotiga tatbiq etish bo‘yicha «Navro‘z xalqona sport bayrami» namunaviy modeli va mezonlar tizimi tavsiya etiladi.

Kalit so‘zlar: mavsumiy-marosim folklori, jismoniy tarbiya, xalq pedagogikasi, folklor-pedagogik an‘ana, Navro‘z, harakat madaniyati, milliy tarbiya g‘oyalari, sinkretik marosim.

Abstract. This article presents a historical-pedagogical analysis of physical education ideas embedded in Uzbek seasonal-ceremonial folklore. Ceremonies including Navro‘z (New Year), Lola sayli (Tulip Festival), Shoxmoylar (first ploughing), Loy tutish (canal digging), Sust xotin (rain-calling), Boychechak (spring herald), Halinchak (swing), Oblo baraka (harvest) and Gap-gashtak (winter gatherings) are examined from the perspectives of movement components, verbal layers and educational functions. Applying a unified analytical framework across all four seasonal cycles, the study identifies five core pedagogical ideas: 1) the unity of physical and intellectual development; 2) physical activity organised in festive and play forms; 3) the integration of labour and physical conditioning; 4) a holistic understanding of health as physical-spiritual unity; 5) the valorisation of physical culture through oral literary forms. The article proposes a sample model – the «Navro‘z Folk Sports Festival» – and a selection-criteria framework for incorporating this heritage into contemporary education.

Keywords: seasonal-ceremonial folklore, physical education, folk pedagogy, folklore-pedagogical tradition, Navro‘z, movement culture, national educational ideas, syncretic ritual.

Xalq pedagogikasi o‘z tarbiyaviy g‘oyalarini maxsus risolalar yoki dasturlarda emas, balki xalq hayotining tabiiy oqimiga singdirilgan vositalar: mehnat, o‘yin, marosim va og‘zaki badiiy ijod namunalarida mujassam etgan. Ushbu vositalar orasida mavsumiy-marosim folklori alohida o‘rin tutadi: u bir vaqtning o‘zida tarixiy xotira, ijtimoiy regulyator va tarbiyaviy mexanizm funksiyasini bajargan.





O‘zbek marosim folklori folklorshunoslik nuqtai nazaridan ancha mukammal tadqiq etilgan: B.Sarimsoqov, M.Jo‘rayev, O.Safarov kabi olimlar marosimlarning janrlar tarkibi, genezisi, poetikasi va mahalliy variantlarini atroflicha o‘rgangan. Biroq ushbu marosimlarning tarbiyaviy, xususan jismoniy-tarbiyaviy potentsiali maxsus pedagogik tadqiqot predmetiga aylantirilmagan. Aynan shu bo‘shliq mavzu doirasida tadqiqot olib borish zaruratini belgilaydi.

B. Sarimsoqov ta'rifiga ko'ra "Marosim – «inson moddiy va ma'naviy turmushining talab va ehtiyoji bilan yuzaga kelgan, tabiiy hodisalar, mehnat jarayonlari yoki hayotiy muhim voqealar bilan bog'liq bo'lgan, ramziy xarakter kasb etgan jamoaviy amallar majmui»dir. Marosimning tarbiyaviy imkoniyati, eng avvalo, uning sinkretik tabiatidan kelib chiqadi: harakat (o'yin, dramatik namoyish), so'z (qo'shiq, aytim, topishmoq) va ijtimoiy faoliyat (hashar, musobaqa, jamoa yig'ini) unda yaxlit birlikda namoyon bo'ladi.

Jismoniy tarbiya nuqtai nazaridan marosimning quyidagi tarkibiy elementlari pedagogik ahamiyat kasb etadi: 1) jismoniy harakat komponenti (yurish, yugurish, sakrash, ko'tarish, suzish, musobaqa); 2) jismoniy normalarni verbal ifodalash (olqish, qo'shiq, maqol, topishmoq); 3) harakat bilan birga keladigan ijtimoiy motivatsiya (g'alaba, nufuz, jamoa tan olishi); 4) yoshlarni katta avlod jismoniy madaniyatiga bosqichma-bosqich kiritish funksiyasi.

Bahorgi marosimlar turkumi

Bahorgi marosimlar turkumi jismoniy tarbiya g'oyalari eng yorqin namoyon bo'lgan guruhdir. Navro'z va yilboshi tomoshalarida an'anaviy musobaqalar – ko'pkari, kurash, uloq, poyga, chillak – jismoniy chidam, kuch va epchillikni jamoaviy baholash funksiyasini bajargan. M. Jo'rayev ma'lumotlariga ko'ra, qadimgi turkiylar qish va bahor almashinishini «kuchning sinalishi» deb bilgan bu tasavvur musobaqa va o'yinlarda pedagogik mazmun kasb etgan.

Lola sayli – aholining tabiat qo'yniga ommaviy chiqishi uzoq piyoda yurish, tog' va adirlarni aylanib chiqish, toza havoda bo'lish kabi tabiiy jismoniy faollikni o'z ichiga olgan. Shoxmoylar marosimida og'ir jismoniy faoliyat: haydalgan yer, haydab bo'lingan er – ijtimoiy tan olinish va nufuz bilan rag'batlantirilgan.

Yomg'ir chaqirish va harakatli marosimlar

«Sust xotin» marosimida ishtirokchilar qishloq bo'ylab uyushgan yurish shaklida harakat qilgan. Bolalar ham bu marosimning faol ishtirokchisi bo'lib, «Chala xotin» variantida qo'g'irchoq ko'tarib, uylardan o'tganlar. Pedagogik nuqtai nazardan bu marosimda uch jihat muhim: uzoq masofani piyoda bosib o'tish (tabiiy jismoniy yuklama), suv bilan muomala qilish (suvga qarshilik va chidamlilik), jamoaviy harakat muvofiqlashtirish (ijtimoiy koordinatsiya).





«Boychechak» marosimida bolalar bahor elchilari sifatida hovlima-hovli yurib qo‘shiq kuylaganlar bu – bolaning ijtimoiy-jismoniy faolligini rag‘batlantirishning xalqona shakli. Halinchak (arg‘imchoq) uchish o‘yini esa muvozanat, koordinatsiya va ritmik harakat rivojlantiruvchi vosita sifatida ko‘rsatilgan.

Kuzgi va qishki marosimlar

«Oblo baraka» hosil yig‘im-terimi marosimida mehnat musobaqasining yorqin namunasi aks etgan: o‘rim oxirlab qolganda o‘roqchilar oxirgi boshhoqlarni kim avval o‘radi, deb poyga qilganlar. Bu «musobaqa pedagogikasi»ning tabiiy ko‘rinishi ya’ni mehnatni o‘yingga aylantirish orqali jismoniy samaradorlikni oshirish.

Gap-gashtak an‘anasi qishki davraning ijtimoiy-jismoniy funksiyasini bajargan: jamoaviy ziyofat, qo‘shiq va o‘yin orqali qishki harakatsizlikni engish, jamoaviy ruhiy va jismoniy faollikni saqlab qolish. B. Sarimsoqov bu an‘anani «o‘z davrining madaniy-oqartuv tadbiri» deb baholagan.

Mavsumiy-marosim folklorining to‘liq tahlili asosida beshta asosiy pedagogik g‘oyani ajratib ko‘rsatishimiz mumkin.

1. Jismoniy va aqliy kamolot birligi. Loy tutish marosimida kurash tushish, ariq qazish va topishmoq yechishning teng qiymatli to‘lov sanalishi buning yorqin dalilidir. Bu g‘oya Abu Ali ibn Sinoning «yaxshi tarbiya uchun ruh va tana birgalikda rivojlanishi zarur» tamoyili bilan to‘la uyg‘un.

2. Harakat faolligining bayram va o‘yin shakli. Navro‘z musobaqalari, o‘rim poygasi, halinchak uchish, bolalarning «Boychechak» yurishlari – barchasida jismoniy yuklanma bayram kayfiyati bilan uyg‘unlashtirilgan. Bu zamonaviy «o‘yin pedagogikasi» (gamification) ning xalqona prototipi.

3. Mehnat va jismoniy chiniqish birligi. Shoxmoylar, Loy tutish, «Oblo baraka» marosimlari jismoniy tarbiyani ishlab chiqarish mehnatidan ayri holda emas, uning ichida ko‘radi: mehnat – tarbiya, tarbiya – mehnat.

4. Sog‘liqni jismoniy va ruhiy birlikda tushunish. Aytim-olqishlarda chaqaloqdan tortib qari-qartanggacha tana a‘zolari tilaklari, chillaga tosh solish marosimi, badik va kinna, bularning barchasi sog‘lom tanani ruhiy barqarorlik bilan bog‘laydi.

5. Jismoniy tarbiyaning so‘z vositasida qadriyatlashtirilishi. Mavsumiy marosimlarning verbal qatlami: qo‘shiq, olqish, aytim, sanama va topishmoqlar harakat madaniyatini badiiy obrazlar orqali ijtimoiy qadriyatga aylantirgan.

Bu besh g‘oya Abdulla Avloniyning «tarbiyaning birinchi zaruriy sharti – badanning salomatligi va pokizaligi» tamoyili va Behbudiy pedagogik qarashlarida ko‘rsatilgan milliy tarbiya idealiga hamohangdir.

Izlanishlarimiz natijalari asosida quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:





Oliy ta'lim dasturlarining jismoniy tarbiya darslarida milliy harakatli o'yinlarni (Oq terakmi-Ko'k terak, bekinmachoq, halinchak, arqon tortish) muntazam kiritish; har bir o'yin uchun marosim konteksti va pedagogik izohni taqdim etish;

maktabgacha ta'lim muassasalarida Navro'z, Lola sayli va Boychechak marosimlariga asoslangan harakatli tadbirlar tizimini joriy etish;

«Navro'z xalqona sport bayrami» namunaviy modeli: 1) tantanali qism – Boychechak qo'shig'i bilan yurib kirish; 2) musobaqa qismi: kurash, chillak, arqon tortish, uzoqlikka tosh otish; 3) madaniy qism: folklor ko'rgazmasi, topishmoq bellashuvi.

material tanlash mezonlari: yoshga moslik (harakat va aqliy yuklama), xavfsizlik (zarar keltirmasligi), pedagogik ahamiyat (aniq tarbiyaviy maqsad), madaniy haqiqiylik (mahalliy an'anaga asoslanish), qiziqarlilik.

o'qituvchi tayyorgarligi: jismoniy tarbiya o'qituvchisi va maktabgacha ta'lim tarbiyachisi milliy o'yinlarning faqat qoidalarini emas, folklor konteksti, tarixiy ma'nosi va pedagogik imkoniyatlarini ham bilishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, mavsumiy-marosim folklori xalq xo'jalik kalendari bilan bog'liq holda jismoniy tarbiya g'oyalarining boy majmuini mujassam etgan: qishki marosimlarda davra madaniyati va ijtimoiy intizom; bahorgi marosimlarda musobaqa, mehnat va bahorgi harakatlilik; yozgi marosimlarda chidamlilik va ritmik harakat; kuzgi marosimlarda mehnat musobaqasi va jamoaviy natija.

Ushbu meros uch xususiyat bilan ajralib turadi: 1) yaxlitlik – jismoniy va ma'naviy tarbiya bir-biridan ajralmas; 2) tabiiylik – tarbiya sun'iy emas, hayotiy ehtiyojdan kelib chiqadi; 3) jamoachilik – individual emas, jamoaviy harakat va baholash ustunlik qiladi.

Zamonaviy ta'lim uchun bu meros nafaqat tarixiy qiziqarli, balki amaliy qimmatli manbadir. Ko'rsatilgan pedagogik g'oyalar va namunaviy modellar milliy jismoniy tarbiya metodologiyasini boyitishga, yoshlarda milliy o'zlikni anglash bilan birga jismoniy salomatlikni shakllantirish vazifasiga bevosita xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Саримсоқов Б. Ўзбек маросим фольклорининг поэтикаси. - Тошкент: Фан, 1986. 198 - б.

2. Жўраев М. Наврўз: тарихи, маросимлари, фольклори. - Тошкент: Ўзбекистон, 1992. - 144 б.

3. Сафаров О. Ўзбек болалар фольклори. - Тошкент: Ўқитувчи, 1978. - 156 б.



- — — — —
4. Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. - Тошкент: Ўқитувчи, 1992. - 159 б.
 5. Ибн Сино. Тиб қонунлари. I жилд. - Тошкент: Фан, 1981. - 380 б.
 6. Волков Г.Н. Этнопедагогика. - Москва: Просвещение, 1974. - 240 с.

A'ZAM O'KTAM SHE'RIYATIDA XALQONA RUH

Muqimjonova Nilufarxon Ikromjon qizi,

Qo‘qon universiteti Ta‘lim fakulteti

“Boshlang‘ich ta‘lim” ta‘lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Tel. raqam: +998905652242

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada zamonaviy o‘zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri — A‘zam O‘ktamning hayoti va ijodi haqida so‘z yuritiladi. Shoirning badiiy qarashlari, she‘riyatidagi asosiy g‘oyalar hamda xalqona ohanglar tahlil etiladi. Ayniqsa, uning “Ilk she‘r” asari misolida Vatanga sadoqat, ona mehrini ulug‘lash, bolalik va yoshlik xotiralarini tasvirlashdagi o‘ziga xos badiiy uslubi ochib beriladi. Maqola davomida shoirning ijodiy merosi bugungi avlod tarbiyasida qanday ahamiyat kasb etishi haqida ham xulosa chiqarilgan.

KALIT SO‘ZLAR: A‘zam O‘ktam, shoir, she‘r, ijod, o‘zbek adabiyoti, to‘g‘rilik, samimiyat, vatanga muhabbat, ona timsoli, qishloq, bolalik, xotira.

ANNOTATION: This article discusses the life and creative work of one of the prominent representatives of modern Uzbek literature — A‘zam O‘ktam. The poet’s artistic views, the main ideas of his poetry, as well as folk motifs are analyzed. In particular, through the example of his poem “The First Poem,” the author’s unique artistic style in depicting devotion to the homeland, glorification of motherly love, and memories of childhood and youth is revealed. The article also concludes with reflections on the significance of the poet’s literary heritage in the education of today’s generation.

KEY WORDS: A‘zam O‘ktam, poet, poem, creativity, Uzbek literature, honesty, sincerity, love for the homeland, mother figure, village, childhood, memory.

KIRISH. A‘zam O‘ktam ijodi o‘zbek adabiyotida alohida o‘rin tutadi. Albatta u o‘zbek she‘riyatida xalqona ruh, samimiy ohang va hayotiy obrazlarni o‘zida uyg‘unlashtirgan shoirlardan biri desak sira mubolag‘a bo‘lmaydi. Uning she‘rlari inson qalbiga iliqlik bag‘ishlab, o‘quvchini chuqur o‘yga chorlaydi. U o‘z she‘rlari orqali bolalik xotiralari, ona mehri, qishloq hayoti, mehnat go‘zalligi kabi bir qancha hislarni o‘quvchi qalbiga muhrlaydi.

Shoir ijodida xalqona ruh, lirizm va falsafiy mushohada uyg‘unlashgan bo‘lib, har bir asarida hayotiy haqiqatlar aks etadi.

A‘zam O‘ktam asl ismi A‘zam Xudoyberdiyev bo‘lib, 1960-yil 4-oktyabrda Farg‘ona viloyatining Buvayda tumanida tug‘ilgan. 1985-yillarda Toshkent Davlat



Uzoq JO‘RAQULOV. A‘ZAM O‘KTAM SHE‘RIYATINING UCH ASOSI.....	488-492
Salimjon GANIYEV, Matluba SHUKUROVA. THE POETIC LEGACY OF AZAM UKTAM: INNOVATIONS.....	492-498
Shahlo NARALIYEVA, Asror ALLAYAROV. THE PEDAGOGICAL FEATURES OF AZAM UKTAM'S POEMS: MORAL, SPIRITUAL, AND CULTURAL EDUCATION IN MODERN UZBEK POETRY.....	498-503
Aziz RAJABIY. A‘ZAM O‘KTAM SHE‘RIYATIDA MUSIQA SAN‘ATI TALQINI	504-508
Dilrabo ANDANIYAZOVA. A‘ZAM O‘KTAMNING BADIY TIL MAHORATI.....	508-512
Zulfiya MARUFOVA. A‘ZAM O‘KTAM SHE‘RIYATIDA MILLIY ESTETIK VA AXLOQIY QADRIYATLAR TALQINI	512-515
Shahodat ISAXONOVA. A‘ZAM O‘KTAM SHE‘RIYATIDA TARIXIYLIK FALSAFASI.....	516-519
Sobirjon OTABOYEV. A‘ZAM VA O‘KTAM SHOIR.....	519-522
Musharrafxon IMOMALIYEVA. A‘ZAM O‘KTAM IJODIGA NAZAR.....	522-526
Shahboz ERGASHEV. MAVSUMIY-MAROSIM FOLKLORIDA JISMONIY TARBIYA G‘OYALARI VA ULARNING PEDAGOGIK TALQINI.....	526-531
Nilufarxon MUQIMJONOVA. A‘ZAM O‘KTAM SHE‘RIYATIDA XALQONA RUH.....	531-534

